

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



**QADIMGI VA O‘RTA ASRLAR TARIXI MANBASHUNOSLIGI,
TARIXSHUNOSLIGI FANI BO‘YICHA**

O‘QUV DASTURI

Magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabalari uchun

Bilim sohasi: 200000 – San’at va gumanitar fanlar

Ta’lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 70220301-Tarix

Termiz – 2024

Fan/modul kodi QO'ATMTM106	O'quv yili 2024-2025	Semestr II	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Qadimgi va o'rta asrlar tarixi manbashunosligi, tarixshunosligi	72	108	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarda manbashunoslik va tarixshunoslikning vazifasi, predmeti va obykti, tadqiqot va manbalarning turlarini va tadqiqotlar natijalarini jamlash, manbashunoslikning nazariy masalalarini, manbalarni ichki va tashqi tahlil qilishni hamda, manbalarni har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga manbalar va tarixiy tadqiqotlarning manbashunoslikdagi va tarixshunoslikdagi o'rni, tarix bilimini targ'ib qilishning shakllari, O'rta Osiyo xalqlarining tarixi bilan bog'liq manbalar haqida umumiy ma'lumot olishi, ta'lim jarayonida manbalar va ilmiy tadqiqotlardan kichik ilmiy ishlarida foydalanishni o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Manbalarni turkumlash

Tarixiy tadqiqot uchun manbalarni turkumlashning ahamiyati. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar: manbalarni mazmuniga, kelib chiqishiga va yo'nalishiga qarab ajratish. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari: moddiy yodgorliklar, ma'naviy yodgorliklar. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlariga bo'linishi: moddiy (ashyoviy) manbalar, etnografik manbalar, lingvistik manbalar, og'zaki manbalar (folklor). Yozma manbalar. Yozma manbalarning asosiy xillari. Adabiy manbalar (yilnomalar, xronikalar Epik yodgorliklar. Aktlarga oid hujjatlar (yorliqlar, aktlar, xatlar, yuridik-qozixona hujjatlari). Arxiv manbalari. Normativ va ijroiya hujjatlari; statistik materiallar tarixiy manba sifatida. Jamoat tashkilotlari hujjatlari tarixiy manba sifatida. Diplomatik hujjatlar, memuarlar, davriy matbuot.

2-mavzu. Manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilish

Manbashunoslik sohasidagi tadqiqot. Manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariga qarab tahlil qilish. Manbalarni umumiy tavsiflash va alohida bir manbani tadqiq etish. Matnni aniqlash. Asl manba. Manba yozilgan davr va joy, unda tarixiylikning in'ikosi. Manbaning yaratilish tarixi shart-sharoit va undagi tarixiy haqqoniylik mezonlari (hujjatlarda tarixiylik deyarli real aks etgan bo'ladi). Asl manbadan

ko'chirilgan nusxalar. Nusxalarning asl manbaga yaqinligini aniqlash muammolari.

3 –mavzu. O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o'rta asr yozma manbalari (arab yozuvigacha)

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rostam, Doro I, Ayritom bitiklari). Avesto-qadimiy yozma yodgorlik; Avestoda O'rta Osiyo tavsifi. Qadimgi Hind manbalarida O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar. Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mualliflari asarlari O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixiga oid muhim manba: Gerodot, Diodor, Aristotel, Pompey Trog, Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Gay Pliniy, Plutarx, Polibiy, Strabon, Klavdiy Ptolemey asarlari. Xitoy solnomalari O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qadimgi manba sifatida. Xou-Xan-shu ("Keyingi Xan sulolasi tarixi"), Bey-shu ("Shimoliy sulolalar tarixi"), Suy-shu ("Suy xonadoni tarixi"). Qadimgi turkiy manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. runa bitiklari: Lena-Baykalbo'yi, Yenisey, Mongoliya, Oltoy, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyodan topilgan bitiklar (To'nyuhuq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga xoqon bitigi, Ongin bitigi). Sug'd hujjatlari o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manba. Mug'qal'asidan topilgan hujjatlar, Afrosiyobdan topilgan sug'd hujjatlari, Sharqiy Turkistondan topilgan sug'd hujjatlari va boshqalar.

4 –mavzu. Arab yozuvidagi (arab, fors turkiy tillardagi manbalar)

Arab yozuvidagi dastlabki manbalar tarixidan. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari; hadislar va ularning sharhlari; Muhammad payg'ambar va xalifalar hayotiga oid asarlar. Fiqhga oid manbalar. Arab tilida yozilgan turli fan sohalariga oid manbalar (filologiya, lug'atlar, falsafa, meditsina, geografiya). Arab tilidagi tarixiy asarlar (al-Madoiniy, Tabariy, al-Balazuriy, al-YA'qubiy, Beruniy asarlari). Fanlar tasnifiga oid asarlar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh al-Xorazmiy). IX-XIII asrlar davomida arab tilidagi manbalarning ko'payishi. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Arab yozuviga o'tish bosqichlari. Forsiy matnlardagi xat turlari. Xattotlik kasb sifatida. Forsiy yozma merosning ko'payib borishi. Eng qadimgi forsiy qo'lyozmalar (islomga oid manbalar; turli fan sohalariga oid asarlar). Bizgacha yetib kelgan forsiy yozma meros haqida (Tarjimayi "Tarixi Tabariy", Hudud-ul-olam, Jahonnoma, "Zayn-ul-axbor" Gardiziy asari; Firdavsiy "Shohnoma"). Arab yozuvidagi turkiy yozma meros. Turkiy yozma merosning ko'lami. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozma asarlarning miqdoriy ko'rsatkichlari (jahon qo'lyozma xazinalaridagi salmog'i). Turkiy qo'lyozmalarining mazmuniy tarkibi: tarix, xronologiya, yozishmalar, biografiya, shajara, geografiya, bibliografiya, astronomiya, ensiklopediya, meditsina, falsafa, etika, matematika. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozmalarining tashqi belgilariga qarab bo'linishi. Turkiy qo'lyozmalar — "Qutadg'u bilik", "Tarixi muluki ajam", Qur'on tafsirlari, "Qisasi Rabg'uziy", "Shayboniynoma", "Tavorixi guzida" asarlari.

5 –mavzu. Sharq qo'lyozmalari xazinalari

Qo'lyozma asarlar tarixidan va ularning hududiy qamrovi. Arab tilidagi yozma meros va uning tarqalishi. Qo'lyozmalarining jahon bo'ylab tarqalish sabablari. Sharq qo'lyozmalarining Yevropaga tarqalishi. Sharq

qo'lyozmalarining turli mamlakatlardagi miqdoriy ko'rsatkichi. Qo'lyozmalar xazinalari: Misr, Eron, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, O'zbekiston. Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash va kataloglar chop etilishi tarixidan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasini haqida umumiy ma'lumotlar.

6 –mavzu. O'rta Osiyoning IX-XIII asrlar tarixiga oid yozma manbalar

O'rta Osiyo tarixi IX-XV asrlarda yozilgan arab tilidagi qator yozma manbalarda aks etgan. Jumladan: al-Madoiniy "Axbor al-xulafa", al-YA'qubiy "Kitob al-buldon", Balazuriy "Kitob futuh al-buldon", Tabariy "Tarix ar-rusul va-l-muluk", Ibn Fazlon "Risola", al-Mas'udiy "Muruj az-zahab", Utbiy "Tarixi Yaminiy", Abu Abdulloh al-Xorazmiy "Mafotih al-ulum", Abu Rayhon Beruniy "Osor al-boqiya", Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'at at-turk", Sam'oniyy "Kitob al-ansob", Ibn al-Asir "Al-Komil fi-t-tarix", Yoqut Hamaviy "Mu'jam al-buldon", Muhammad Nasaviy "Sirat as-sulton Jaloliddin", Jamol Qarshiy "Mulhaqat as-suroh". O'rta Osiyo IX-XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy "Buxoro tarixi", "Hudud ul-olam", Nizomulmulk "Siyosatnoma", Nizomi Aruzi Samarqandiy "Chor maqola", Gardiziy "Zayn ul-axbor", Abulfazl Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy", Avfiy "Javomi' al-hikoyot", Juvayniy "Tarixi jahongushoy".

7 –mavzu. Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalar

Rashiduddin "Jome' at-tavorix", Hamidulloh Qazviniy "Tarixi guzida". Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar: Nizomiddiy Shomiy "Zafarnoma", Muiniddin Natanziy "Muntaxab at-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiy "Matla as-sa'dayn", Mirxond "Ravzat as-safo" va boshqa asarlardagi ma'lumotlar.

8 –mavzu O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid yozma manbalar

O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid manbalar asosan fors-tojik tilida bitilgan. Bu davrdagi yozma manbalar sirasiga Mulla Shodiyning "Fathnoma", Fazlulloh ibn Ruzbexonning "Mehmonnomai Buxoro", Xondamirning "Habib as-siyar", Zayniddin Vosifiy "Badoye' ul-vaqoye", Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy", Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma", Mahmud ibn Valiy "Bahr ul-asror", Xoja Samandar Termiziy "Dastur al-muluk", Muhammad Yusuf Munshiy "Tarixi Muqimxoniy", Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma", Abdurahmon Davlat "Tarixi Abulfayzxon".

9 –mavzu O'rta Osiyoning XVII-XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalar

Mir Muhammad Salim "Silsilat as-salotin", Muhammad Vafo Karminagiy "Tuhfai xoniy", Mir Olim Buxoriy "Fathnomayi sultoniyy", Axmad Donish "Navodir al-vaqoye", Abduazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya", Mirzo Salimbek "Tarixi Salimiy", Muhammad Solih "Tarixi jadidayi Toshkand", Niyoz Muhammad Xo'qandiyyning "Tarixi Shohruxiy" asarlarini kiritish mumkin. O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalarga esa, muallifi noma'lum "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma"),

Muhammad Solih "Shayboniynoma", Zahiriddin Bobur "Boburnoma", Abulg'ozir Bahodurxon "Shajarayi tarokima", "Shajarayi turk va mo'g'ul", Munis va Ogahiy "Firdavs ul-iqbol" va Mirzo Olim Toshkandiyning "Ansob as-salotin" asarlari.

10 –mavzu. XVII-XVIII asrlar rus va yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi

O'rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan Yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar sayyoh va elchilarning kundaliklari. Marko Polo, Rui Gonsales de Klavixo va Antonio Jenkinson kundaliklari. XVII-XVIII asrlar rus va yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi I.D. Xoxlovning ma'lumotlarida ("Kniga Bolshomu cherteju"); B.A. Pazuxin va S.I. Pazuxin ma'lumotlarida; Florio Benevini axborotida; V.N. Tatishev "Leksikon geograficheskoy i politicheskoy"; D. Gladishev va Muravin ma'lumotlarida; F. Yefremov safarnomasi, T. Burnashevning O'rta Osiyoga safari xotiralari; F. Nazarov safarnomasi; N. Muravyev ma'lumotlari; YE.K. Meyyendorf safarnomasi.

11–mavzu. O'rta Osiyo tarixiga oid Rossiya sharqshunoslari tadqiqotlari manba sifatida va yevropa tillaridagi yozma manbalar

"Turkiston arxeolog havaskorlari to'garagi", "Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiya"si kabi ilmiy jamolar tomonidan muntazam nashr etilgan to'plamlar va boshqalarda e'lon qilingan maqolalar. Rossiya Sharqshunoslari tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda O'rta Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan istilo qilinishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi tarixi.

12–mavzu. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari (O'zR MA)

Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. Turkistonni o'rgangan rus olimlarining asarlari. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi materiallari tarixiy manba sifatida. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonga oid statistik ma'lumotlar, arxiv materiallar va davriy matbuot («Turkestanskiye vedomosti», «Turkestanskiy vestnik» va b.) xabarlar tarixiy manba sifatida ahamiyati.

13 –mavzu. Kirish. Tarixshunoslik fani va uning vazifasi

Tarix fanining vujudga kelishi va o'tmishni o'rganishdagi dastlabki malakalar. Tarix fanining tarkibiy qismlari. Tarix bilimlarini rivojlanishi va o'zgarishlarini aniqlovchi omillar. Tarix fanidagi izchillik. Tarix fanidagi maktablar.

"Tarixshunoslik" atamasi. Tarixshunoslikning obyekti, predmeti va vazifasi. Tarixshunoslik tarix fanining maxsus sohasi va o'quv fani sifatida. Tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari.

Tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari. Qiyosiy tarixiy usul. Aniq tahliliy usul. Mantiqiy tahliliy usul. Xronologik usul. Davriylashtirish usuli. Retrospektiv tahlil. Tadqiqotlarda mavzuning o'rganilish darajasini tadqiq qilish. Tadqiqotlarni davrlashtirish.

XX asrning 90-yillarida O'zbekiston tarixshunoslik fani rivojida yangi davrning boshlanishi. Nazariy-metodologik masalalarning ishlab chiqilishi.

Ilmiy maktablarning shakllanishi. O'zbekistonda tarixshunoslik fani va tarix fanidagi metodologiyalar. Mustaqillik davridagi o'zgarishlar. Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarix fani metodologiyasini va tarix fani konsepsiyasini ishlab chiqarishdagi roli.

14-mavzu. O'zbekistonda qadimgi davr tarixining o'rganilishi

O'zbekistonning qadimgi tarixi tarixshunosligi. O'zbekistonning qadimgi davr tarixi haqida umumiy ma'lumot, uning o'ziga xos tomonlari. O'zbekistonning qadimiy tarixiga oid arxeologik tadqiqotlar. Qadimgi davr tarixiga oid numizmatik tadqiqotlarni o'rganish.

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rostam, Doro I, Ayrptom bitiklari)ning o'rganilishi. Avesto, Qadimgi Hind manbalariga doir tadqiqotlar.

O'rta Osiyo haqidagi antik davrda yaratilgan asarlarining tadqiq etilishi.

15-mavzu. O'zbekistonda o'rta asrlar tarixining o'rganilishi

Sharq qo'lyozmalari va ularning dunyo sivilizatsiya tarixidagi o'rni. O'rta asrlar tarixnavisligining xalq ijodiyoti, an'analari bilan uzviy bog'liqligi. Arab, fors, yunon va turk tilidagi qo'lyozmalar va ularning tarix fanining rivojlanishidagi o'rni.

O'rta asrlarda yaratilgan asarlarning tarixshunoslik jihatidan tahlili. O'rta asrlarda tarixnavislik maktablaridagi an'analari. O'rta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlarning o'rganilishi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida sharqshunoslar tomonidan qadimgi va o'rta asrlar tarixining o'rganilishi. XX asrda qadimgi va o'rta asrlar tarixining yoritilishi. Mustaqillik yillarida qadimgi va o'rta asrlar tarixiga oid tadqiqotlar.

16-mavzu. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi

Tadqiqotlarda Amir Temur shaxsi va uning siyosiy faoliyati masalalarining yoritilishi. "Temur tuzuklari"ning o'rganilishi. Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosining o'rganilishi. Tarixning turli davrlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishga bo'lgan munosabat.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti masalalarining yoritilishi. Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlarning o'rganilishi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi. Temurshunos olimlarning ilmiy faoliyati.

Xorijiy davlatlarda temuriylar davriga oid tadqiqotlar.

17-mavzu. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi

O'rta Osiyoda mahalliy tarixnavislikning shakllanishi va asosiy yo'nalishlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. Tarixiy tadqiqotlardagi yondoshuvlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida Yevropada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar.

O'rta Osiyo xonliklarining tashkil topishi, ma'muriy hududiy tuzilishi, boshqaruv tizimi, hukmron sulolalar. Xonliklar tarixining asosiy bosqichlari.

Rossiya imperiyasining Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklariga harbiy tajovuzi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Buxoro va Xiva xonliklari siyosiy qaramlik davrida. Vatan tarixshunosligida O'rta Osiyo xonliklarini o'rganishning asosiy bosqichlari. Tarixiy tadqiqotlarda xonliklar haqidagi bilimlarning aks etishi va ularga hukmron tuzum ta'siri.

Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklar tarixiga yangicha yondoshuvlar va ularning nazariy-konseptual, metodologik asoslari. Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy va tashqi aloqalari tarixiga oid tadqiqotlar. O'rta Osiyo xonlari diplomatik yozishmalarining o'rganilishi va ularning ayrim xususiyatlari. Xonliklardagi harbiy siyosat va qo'shinlar tarixi. Shaharlar tarixining o'rganilishi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarining o'rganilishi.

18 –mavzu. XIX-XX asrning boshlarida O'rta Osiyo tarixining o'rganilishi

Sharqshunoslarning O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixi, etnografiyasi, epigrafikasi va numizmatikasiga oid tarixiy asarlari. XIX-XX asrning boshlarida yaratilgan tarixiy-etnografik asarlar.

Sharqshunoslar tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalalarining o'rganilishi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixshunosligi. Davriy matbuotda xonliklar hayotiga oid ma'lumotlar. "Turkestanskiy sbornik" va statistik tadqiqotlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari haqidagi ma'lumotlar.

Turkistonda bolsheviklar hukmronligi va uning xonliklarga ta'siri. Buxoro va Xiva xonliklarining tugatilishi.

Jadid mutafakkirlarining tarix, tarix fani va ta'limi hamda tarixshunoslik haqidagi dunyoqarashlari.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Qadimgi va o'rta asrlar tarixi manbashunosligi, tarixshunosligi" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Qadimgi va o'rta asrlar tarixi manbashunosligi, tarixshunosligi" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining

tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Manbashunoslik fanining maqsadi, vazifalari, ahamiyati.
2. Manbalarni turkumlash.
3. Manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilish.
4. O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o'rta asr yozma manbalari (arabyozuvigacha).
5. Arab yozuvidagi (arab, fors turkiy tillardagi manbalar).
6. Sharq qo'lyozmalari xazinalari.

7. O'rta Osiyoning IX-XV asrlar tarixiga oid yozma manbalar.
8. O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalar.
9. O'rta Osiyo tarixiga oid rus va yevropa tillaridagi yozma manbalar.
10. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillaridagi tarixiga oid manbalar.
- Tarixiy manbalarni to'plash va saqlash.
11. Tarixshunoslik fani uning vazifasi.
12. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tarix fani
13. XII-XIV asrlarda O'rta Osiyoda tarix ilmining rivojlanishi
14. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi
15. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo tarixshunosligi
16. XIX-XX asrning boshlarida Sharq va O'rta Osiyoning o'rganilishi
17. O'rta Osiyo xalqlarining xorijiy mamlakatlar bilan tarixiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarining o'rganilishi.
18. Muammoviy tarixshunoslik. Tadqiqotlarning metodologiyasi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ✓ darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- ✓ tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- ✓ maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- ✓ talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- ✓ faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- ✓ masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Manbashunoslikning fan sifatida rivojlanishi.
2. Tarixiy, nazariy va amaliy manbashunoslik.
3. Manbashunoslik sohasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
4. Yozma manbalarning asosiy xillari.
5. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar.
6. Arab yozuvidagi turkiy yozma meros.
7. Qo'lyozmalarning jahon bo'ylab tarqalish sabablari.
8. O'zR FA Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasasi.
9. Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar
10. O'rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar
11. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba.
12. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov asarlari mustaqil O'zbekiston tarixi bo'yicha asosiy manba.

13. Avesto. Bihustun, Persepoldagi yozuvlar-qadimgi epigrafika yodgorligi sifatida.

14. Sharq qo'lyozmalari va ularning sivilizatsiya tarixidagi o'rni.

15. XII-XIV asrlarda O'rta Osiyoda tarixiga oid xotiralar muhim manba sifatida

16. Ilmiy tadqiqotlarning turlari.

17. O'rta Osiyo xonliklari tarixi xorijiy tarixshunoslikda.

18. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar.

19. XIX-XX asrning boshlarida Rossiya olimlari tomonidan O'rta Osiyoning o'rganilishi

20. Mustaqillik yillarida O'zbek davlatchiligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarning olib borishi.

21. Mustaqillik yillarida O'rta Osiyo xonliklarida tarixining o'rganilishi.

22. O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining manbashunoslik va tarixshunoslikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi.

23. Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi.

24. Mustaqillik yillarida ilmiy nashrlarga O'zbekiston tarixining yoritilishi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-manbalarni turkumlashdagi asosiy tamoyillar, manbashunoslik va tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari, muammoviy tarixshunoslik masalalari, tadqiqotlarning metodologiya masalalari, og'zaki tarix, muammoviy tarixshunoslik, O'rta Osiyoning tarixiga oid manbalar va tadqiqotlar, Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fanidagi tadqiqotlarga haqida **bilishi** kerak;

- talaba O'rta Osiyo tarixiga oid xorijiy tillardagi yozma manbalarni tahlil qilish. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi tarixiga oid manbalarni o'rganish, arab yozuvidagi dastlabki manbalarni tadqiqot ishlarida qo'llay olish, manba va tadqiqotlarni mazmuniga ko'ra guruhlariga bo'la olish, tadqiqotlarda mavzuning o'rganilish darajasini tadqiq qilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi kerak;

- talaba tarix fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, manbashunoslik va tarixshunoslikning predmeti, obykti va vazifalarini farqlay olish, nazariy manbashunoslik, amaliyotda tarixiy manbalarning va tadqiqotlarning asosiy turlarini ajrata olish, manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilishga oid **malakalarga** ega bo'lishi kerak.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruza;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;

	<ul style="list-style-type: none"> • blits-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Манбашунослик. Муаллифлар жамоаси. Дарслик. – Т.: Турон-Иқбол, 2019 2. Madraimov A., Fuzailova U. Tarixiy manbashunoslik. O'quv qo'llanma. – Т.: Fan, 2010. 3. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (кадимги замон ва Ўрта асрлар). – Т., 2001. 4. . Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т. I. История и историческое сознание. – Т.: Ўзбекистон, 2008. 5. Бўриев. О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т., 1997. 6. Саидкулов Т.С. Очерки историографии истории народов Средней Азии. часть I- II. – Т.: Ўқитувчи, 1990. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017. 8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017. 9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017. 10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma-majlisidagi nutq. Т.: «O'zbekiston» 2016. 11. Axmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. - Т.: O'qituvchi, 2001. 12. Абиджанова Д. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2001. 13. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Средней Азии. История и историография колониальной политики царизма в Туркестане (1867-1917). –Т.: Фан, 1995. 14. Алимова Д. Женский вопрос в советской историографии Средней Азии (20-80-ые годы): Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 1991.

15. Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. – Т.: Фан, 1970.
16. Гарипов Р. Историографический ракурс некоторых аспектов политической и социально-экономической обстановки в Туркестане в начале XX века // O'zbekiston tarixi. 2001. – No 1. С. 44-50.
17. Дониёров А. Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2003
18. Зияева Д. Национально-освободительное движение в Туркестане в историографии XX века (проблемы изучения истории восстания 1916 года и движения “истиклолчилик” 1918-1924 гг.): Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Т., 1999.
19. Масалиева О. История Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств в англо-американской историографии XX века. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Т., 1999.
20. Кобзева О. Великий Щелковый путь: проблемы научной периодизации и истоки изучения европейскими учеными во второй половине XIX-начале XX вв. Автореф. дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 2000
21. Пуговкина О. История Туркестана в наследии Российской историографии середины XIX - начала XX века (политические и экономические аспекты). Автореф. дис. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 2006.
22. Илхомов З. Тарих фани методологияси. – Т., 2013.
23. Иноятов К.Х. Историографические исследования в Узбекистане: Итоги, проблемы, перспективы (1961-1980 гг.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Ташкент, 1994.
24. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников географов и ученых XVI перв. пол. Составитель Б.В.Лунин. – Т.: Фан, 1988.
25. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар). – Т.: Фан, 2008.
26. Самарқанд шахрининг умумбашарий маданий тараккиёт тарихида тутган ўрни. Самарқанд шахрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. – Т.: Фан, 2007.
27. Тарихий манбашунослик муаммолари / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2008, 2013.
28. Тарихшунослик ўқишлари. Б.В. Лунин хотирасига бағишланган тарихшунослик ўқишлари // Анжуман материаллари тўплами. – Т.: Фан, 2010.

Axborot manbaalari

1. gov.uz
2. edu.uz

	<p>3. academy.uz</p> <p>4. ziyonet.uz</p>
7.	Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universitetining 2024 yil 30 avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Yormatov F.J.– Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix kafedrası mudiri, t.f.n.dotsent.</p> <p>Vohidov Sh. -Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix kafedrası professori, t.f.d.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Isayev O. – Termiz davlat pedagogika instituti “Tarix va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD).</p> <p>Bokiyev A. Termiz davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası dotsenti, t.f.f.d(PhD)</p>